

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI,
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



«TASDIQLAYMAN»

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor**

K.Seitnazarov

» 2025 y.

**13.00.02 –TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI
(O‘ZBEK TILI) IXTISOSLIGI BO‘YICHA MUTAXASSISLIK
FANLARIDAN**

TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH IMTIHONI

DASTURI

Nukus 2025 yil

KIRISH

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi DTS, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi to‘g‘risida”gi qonunlari asosida va uning talablariga muvofiq tuzildi. Dasturni tayyorlashda “Nazariy tilshunoslik masalalari”, “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi”, “O‘qituvchi nutq madaniyati”, “Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi” “O‘zbek tilini masofadan o‘qitish texnologiyalari”, Ta’im natijalarini baholashning zamonaiy metodlari, “Til ta’limiga psixolingivistik yondashuv ”, “Hozirgi o‘zbek tili” fanlari dasturlariga tayanildi.

Dastur Nukus davlat pedagogika institui kengashisining 2025-yil -sonli yig‘ilishida muhokama qilinib, foydalanishga tavsiya etilgan.

Tuzuvchi:

p.f.n., dotsent Sh.Buranova

Taqrizchilar:

f.f.d. (DSc) dotsent G.Kurboniyazov

f.f.n., dots M.Xudayarova

Кириш

Mustaqillik yillarida pedagog kadrlarni tayyorlashning yangi tizimi ishlab chiqilib, uzluksiz ta'limda o'qitish sifati va samaradorligini bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy, ma'naviy axloqiy tayyorgarligini belgilab berish haqida qat'iy xulosaga kelindi. Talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish mexanizmlarini jismoniy sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish fuqarolik jamiyatni rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish asosida takomillashtirilgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida muhim o'rin egallaydi.

Dastur 13.00.02- Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (O'zbek tili) ixtisosligi bo'yicha mutaxassis talabgorlarning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini, uning ushbu fanning shakllanishi va rivojlanish tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologiyasi masalalarini, manbalarini, shu bilimlar tarmog'ining asosiy nazariy va amaliy masalalarini hamda mavjud materialni nechog'lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini, ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganlik darajasini aniqlash doirasida tuzilgan bo'lib, unda o'qitish metodikasining umumiy masalalari bilan bir qatorda har bir fanning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, bilim va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar, imtihon savollaridan namunalar tavsiya etilgan.

O'zbek tili o'qitish metodikasi

“O'zbek tili o'qitish metodikasi” fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida - mazkur o'quv predmetining nazariy asoslarini bilishi; badiiy asarni lingvistik tahlil qilish va baholash mezonlarini bilishi; ona tili o'qitishda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirish; dars jarayoniga qo'shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli

texnologiyalarni jalb qila ***bilishi kerak***; O'zbek tili o'qitish metodikasi bo'yicha maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari ta'limining mohiyati va printsiplarini o'zlashtirishi; o'quv qurollarining mavjudligiga qarab usullar tanlay olishi; ona tili darslarida milliy mafkura va mustaqillik g'oyasini targ'ib qila olishi ***ko'nikmalariga*** ega bo'lishi kerak, ta'limning turli bosqichlarida mazkur fan yuzasidan namunali dars o'tish, turli tadbirlarni o'tkaza olish, zamon talabidagi darslarni tashkil qila olish ***malakalariga*** ega bo'lishlari lozim.

“O'qituvchi nutq madaniyati”

“O'qituvchi nutqi madaniyati” kursi adabiy til va nutq madaniyati bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini umumlashtirib, talabalarni o'qituvchilikka tayyorlash jarayonida ularning madaniy nutq malakalarini shakllantirishga va rivojlantirishga qaratilgan ma'ruzalar tinglashga hozirlash maqsadini ko'zlaydi. Chunki nutq madaniyatini mukammal egallash jamiyatimizdagi har bir soha egasi uchun zaruriy qurol sanaladi. Fanning maqsadi –”norma (me'yor)- uzus” masalalariga, adabiy til va milliy til, adabiy til va dialektlar, adabiy til va jargon-argolar, adabiy til va funksional stillar (vazifaviy uslublar) munosabatiga oid masalalarga munosabat bildirish va bilimlar bilan qurollantirish, shu bilimlarga tayangan holda ularga nutq madaniyatining og'zaki va yozma shakllari haqida ma'lumot berishdan iborat.

Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” talablari asosida universitet tizimida tayyorlanayotgan kadrlar zimmasiga juda ulkan mas'uliyatlar yuklatilmoqda. O'qitish jarayonida asosiy diqqat-e'tibor o'zbek tili birliklarining barcha imkoniyatlarini ochib berish orqali tilimizning naqadar boy ekanligini namoyish etishga, ulardan maqsadga muvofiq foydalana olish malakasini hosil qilishga va ayniqsa, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda, namunali yozma nutq tuzishga qaratilishini ko'zda tutish darkor. Bu narsa, ko'rinib turibdiki, nutq madaniyati til birliklarining uslubiy imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq holda hal etilishini taqozo etadi.

O‘zbek tilini masofadan o‘qitish texnologiyalari

Masofadan o‘qitish kelajakda eng muhim sohaga aylanishi mumkinligi ancha oldin bashorat qilingan bo‘lsa ham, O‘zbekistonda, Qoraqalpog‘istonda bu yosh soha sanaladi. Demak, bugungi kunda ta’lim jarayoni ishtirokchilarini – o‘qituvchilarni ham, o‘quvchilarni ham, ta’lim muassasalarini ham yangi ta’lim formatiga tayyorlash dolzarb masala hisoblanadi. Jahonda va O‘zbekistonda ta’lim tizimida raqamli ta’lim texnologiyalarini tatbiq qilish bo‘yicha mavjud tajribani o‘rganib chiqish, tahlil qilish masofaviy o‘qitish tizimining samaradorligini baholashga va uni takomillashtirishga imkon beradi. Buning uchun raqamli ta’lim texnologiyalarini tatbiq qilishning nazariy va amaliy muammolari tadqiq qilingan xorij va o‘zbekistonlik olimlarning ishlarini o‘rganish ko‘p masalalarni oydinlashtiradi. Kattalarni, o‘quvchilarni masofali o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari bor, shuningdek, muayyan fanni masofali o‘qitish ham xususiy masalalariga ega.

Ta’im natijalarini baholashning zamonaviy metodlari

Pedagogika institutida tahsil olayotgan bo‘lajak o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi o‘quvchilarning ona tili va adabiyot fanidan egallagan BMKlarini nazorat qilish va baholash bo‘yicha zamonaviy metod va vositalardan, o‘quvchi va talabalarr bilimni baholashning xalqaro tajribalaridan boxabar bo‘lishlari taqozo qilinadi. Bunda o‘quv rejasining tanlov fanlari qatoridan o‘rin olgan “Ta’lim natijalarini baholashning zamonaviy metodlari” fani muhim ahamiyatga ega.

Fanning maqsadi – Mazkur fan o‘quvchilarning ona tili va adabiyoti ta’limidan egallagan BMKlarini diagnostika qilish va baholash tizimlariga bag‘ishlangan. Unda o‘quvchilarning til va adabiyotga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni nazorat qilish va baholash bo‘yicha asosiy tushunchalar va atamalar mohiyati ochib beriladi. Fanning vazifasi – baholashning an’anaviy va zamonaviy metodlari (reyting, monitoring, o‘quvchi portfoliosi), test nazorati,

avtomatlashtirilgan testlar va ularning natijalarini qayta ishlash, o'quvchilar BMKlarini nazorat qilish va baholashning asosiy vositalari, xorijiy tajribalar haqida ma'lumot beriladi.

Til ta'limiga psixolingivistik yondashuv

“Til ta'limiga psixolingivistik yondashuv” oq'uv fani magistratura talabalalarini ilmiy-pedagogik faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Fan ona tili va adabiyot ta'limida psixolingivistik tadqiqotlarni o'rganishga qaratilgan. Til va adabiyot ta'limiga psixolingivistik tadqiqotlar natijalarini tatbiq etish yo'llari bo'yicha bilimga ega bo'ladilar. Mazkur fanni o'rganishda talabalar til ta'limiga psixolingivistik yondashuv kursining maqsad va vazifalarini, til ta'limiga psixolingivistik yondashuvning boshqa yondashuvlardan farqini, til ta'limi jarayonini psixolingivistik baholash zaruriyatini, til ta'limiga psixolingivistik yondashuvning nazariy va amaliy ahamiyatini shuningdek, til ta'limiga psixolingivistik yondashuvni bilib olishlari nazarda tutilgan.

Fanning maqsadi – Ushbu fanni o'rganishdan maqsad til ta'limi jarayonining psixolingivistik asoslari bilan tanishtirish, o'rgatish va o'rganishdagi umumiy va xususiy holatlar asosidagi psixolingivistik qonuniyatlarni tushunishga o'rgatadi.

Hozirgi o'zbek tili

Fonetika. Fonetikaning predmeti, mundarijasi. Nutq tovushlarining uch aspekti. Unli va undosh fonemalar, ularning tasnifi. Fonetik jarayonlar. Urg'u va bo'g'in.

Leksikologiya. Kirish. So'zning semantik strukturasi. Monosemiya va polisemiya. Ma'no ko'chishi, kengayishi va torayishi. Iboraning semantik strukturasi. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Lug'aviy birliklarning tarixiy-etimologik shakllanishi jihatidan tavsifi. Iste'mol doirasiga ko'ra o'zbek tilidagi so'zlar, chegaralanmagan va chegaralangan leksika. Ekspressiv-emotsional leksika. Leksikografiya va lug'at tiplari. LSG va mazmuniy maydon.

Grammatika. Morfemika. So'zning morfem tuzilishi. O'zak va affiksial morfema. Affiksoidlar, so'zning morfem tuzilishidagi ayrim o'zgarishlar.

So'z yasash usullari. O'zbek tilida so'z yasalishi. So'z turkumlarida so'z yasalishi.

Morfologiya. Soʻzlarni turkumlarga ajratish tamoyillari. Konversiya va uning koʻrinishlari. Soʻz turkumlarining koʻchishi.

Ot. Otning maʼno turlari. Grammatik koʻrsatkichlari. Kelishik, egalik va son kategoriyasi.

Sifat. Maʼno turi. Daraja kategoriyasi.

Son. Maʼno turi. Grammatik xususiyatlari. Numerativlar.

Olmosh. Leksik-morfologik xususiyatlari. Sintaktik vazifasi.

Feʼl. Maʼno turlari. Feʼlning grammatik kategoriyalari. Mustaqil va yordamchi feʼl. Koʻmakchi feʼlli soʻz qoʻshilmasi. Toʻliqsiz feʼl. Feʼlning funksional shakllari. Ravish. Maʼno turi. Grammatik belgilari. Oʻzbek tilshunosligida ravishning talqini. Yordamchi soʻzlar. Koʻmakchi. Bogʻlovchi. Yuklama.

Sintaksis. «Sintaksis» kursiga kirish. Sintaktik birliklar. Sintaktik munosabat. Sintaktik qurilish. Sintaktik aloqa. Sintaktik qayta boʻlinish.

Gapda soʻzlarning bogʻlanish yoʻllari. Sintaktik aloqa turlari. Tobe aloqa turlari. Soʻz birikmasi, komponentlar orasidagi munosabatlar.

Gap. Uning belgilari, tasnifi. Gapning aktual boʻlinishi. Tema. Rema.

Gap boʻlaklari. Ularning tasnifi. Bosh boʻlaklar, ularning talqini. Ikkinchi darajali boʻlaklar, ularning turlari. Aniqlovchining gapdagi maqomi. Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalar.

Uyushiq boʻlaklar. Ajratilgan boʻlaklar. Kirish konstruksiyalari.

Qoʻshma gap. Asosiy belgilari. Qoʻshma gaplar tasnifi.

Bogʻlagan qoʻshma gaplar, ularning mazmuniy turlari.

Ergash gapli qoʻshma gaplar va ularning tasnifi.

Ergash va bosh gaplarni farqlash asoslari, ularni biriktiruvchi vositalar. Ergash gaplar tasnifi, ularni ajratish tamoyillari. Ergash gapli qoʻshma gap turlari.

Bogʻlovchisiz qoʻshma gap. Strukturasi, tasnifi. Ularda tinish belgilari.

Murakkab qoʻshma gaplar. Bogʻlanish, ergashish yoʻli bilan tuzilgan qoʻshma gaplar. Bir necha ergash gapli qoʻshma gaplar. Bogʻlanish usullari. Sintaktik sinkretizm.

Gapda shakl va mazmun. Shakliy va mazmuniy birliklar o'rtasidagi nomutanosiblik.

Kirish imtihonining yozma ish shaklida o'tkazish tartibi va baholash mezonlari

Doktoranturaga kirish sinovi umumiy ballari quyidagilardan tashkil topadi:

Doktoranturaga kirishda tanlagan mutaxassislik bo'yicha bilim darajasini belgilovchi maxsus fanlardan sinov o'tkaziladi (baholash 100 ballik mezonda tashkil etadi):

90-100 ball (jami ballning 90-100%) fanni mukammal o'zlashtirgan, variantda ko'rsatilgan savollarga so'z va iboralardan foydalanib, nazariy jihatdan asoslagan, chuqur va ilmiy-tahliliy tarzda yoritilgan talabgorlarga qo'yiladi. Shuningdek, bunda talabgorning mustaqil ko'nikmalari va qo'shimcha manbalardan foydalanganligi ham hisobga olinadi.

70-89 ball (jami ballning 70-89%) fanni o'zlashtirgan, variantda ko'rsatilgan savollarga so'z va iboralardan foydalanib javob bermagan, lekin faqat savolning o'zi bilan cheklanib, tavsiya etilgan darslik va qo'llanmalarda berilgan fikrlardan ijodiy foydalana olgan, qo'shimcha adabiyotlardan foydalana olmagan talabgorlarga qo'yiladi.

60-69 ball (jami ballning 60-69%) fanni qisman o'zlashtirgan, qo'yilgan savollarga qisman javob bera olgan, qo'shimcha adabiyotlardan foydalana olmagan talabgorlarga qo'yiladi.

60 % dan kam ball savollarni yoritishda so'z va iboralarga qoniqarli javob bermagan, variantdagi savollarga javoblarini to'liq yoritilgan olmagan, ilmiy jihatdan asoslamagan talabgorlarga qo'yiladi.

Barcha doktorantlar mutaxassislik bo'yicha kiruvchilarni mutaxassislik fanlardan reytinglarini aniqlashda, baholash mezonlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- sinov bilet asosida yozma ish shaklida o'tkaziladi;
- har bir biletga 5 (besh) tadan savol kiritiladi;
- har bir bilet Davlat standartlari bo'yicha magistrantlar tayyorlash dasturiga kiritilgan mutaxassislik fanlarni asosiy tushunchalaridan tashkil topadi;
- biletga kiritilgan har bir savol 20 (jami 100) ballik sistemada baholanadi.

DOKTORANTURAGA KIRUVCHILARNI BILIMINI BAHOLASH MEZONI

No	Doktoranturaga kiruvchining bilim darajasi	Ball
1	Nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo'lib, mustaqil mushohada yuritib, masalaning mohiyatini tushinib, bu haqda chuqur tasavvurga ega, ilmiy jihatdan asoslagan, qo'shimcha manbalardan foydalangan	18-20
2	Berilgan masala haqida mustaqil mushohada yuritgan, uning mohiyatini tushunib, u haqda tasavvurga ega bo'lgan, masalaning o'zi bilan cheklanib, qo'shimcha manba va adabiyotlardan foydalana olmagan	14-17
3	Masalaning mohiyatini tushunib, u haqda tasavvurga ega bo'lgan, savolga qisman javob bera olgan, qo'shimcha adabiyotlardan foydalana olmagan	12-13
4	Berilgan masala haqida aniq tasavvurga ega bo'lmagan, savolga qisman javob yozgan, manbaalarda bor ma'lumotlarni to'liq keltirmagan	0-11

Kirish imtihonining test sinovi shaklida o'tkazish tartibi va baholash mezon

Kirish imtihoni ko'p variantli test sinovi shaklida o'tkazilsa har bir variant 100 ta (yoki 50) test savollaridan iborat bo'ladi. Test sinovini baholash 100 ballik tizim asosida amalga oshiriladi.

Talabgorlar bilim darajasini belgilashda 100 ta savoldan iborat test sinovi o'tkazilganda:

- test sinovida 90-100 oralig'ida to'g'ri javobni topgan talabgorlarga mos xolda 90-100 ball qo'yiladi.
- test sinovida 70-89 oralig'ida to'g'ri javobni topgan talabgorlarga mos xolda 70-89 ball qo'yiladi.
- test sinovida 60-69 oralig'ida to'g'ri javobni topgan talabgorlarga mos xolda 60-69 ball qo'yiladi.
- test sinovida 60 tadan kam to'g'ri javobni topgan (60 baldan kam ball yig'gan) talabgorlar sinovdan o'tmagan hisoblanadi.

Kirish imtihoni bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi 0 dan 100 balgacha baholanadi (90-100 ball – a'lo, 70-90 ball – yaxshi, 60-69 ball – qoniqarli, 0-59 ball – qoniqarsiz)

ESLATMA: Doktoranturaga kirish imtihonlari jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan talabgorlar yakuniy baholar e'lon qilingan kundan e'tiboran 24 soat muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Doktoranturaga kirish imtihonlari komissiyasi va talabgor o'rtasida baholash ballari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi hamda imtixon raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. 2019-yil, 29-aprel.
2. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'raboyeva Z. Ona tili: maktablarining 5-sinfi uchun darslik / To'ldirilgan 4-nashri. - T.: Ma'naviyat, 2015. -224 b.
3. Umumta'lim Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun. - T.: Tasvir, 2017.-208 b.
4. Mahmudov N. va boshq. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik / To'ldirilgan va qayta ishlangan 3-nashr. - T.: Ma'naviyat, 2017. - 160 b.
5. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. - T.: Cho'pon nomidagi NMIU, 2014. - 144 b.
6. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. -T.: Tasvir, 2010.-128 b.
7. Mahmudov N.v.b. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi va kasb- hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. - 112 b.
8. Mahmudov N.v.b. Ona tili. o'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va kasb- hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. - 112 b.
9. Mavlonova K. O'quvchining yozma nutqi qanday shakllanadi? // Til va adabiyot ta'limi. -Toshkent, 2015. — JN2 11.- B. 24-25.
10. Mavlonova K. O'quvchi inshoniqanday yozmoqda? // Umumta'lim fanlari metodikasi. Toshkent, 2017, B-4. -B. 6-8.
11. .Kompetensiyaga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o'zbek tili (5-9 sinflar). Toshkent. 2016.
12. .Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. - T: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2005.
13. .Madayev O., Sobirov A., Xolmanova Z., Toshmirzayeva Sh., Ziyodullayeva G., Shamsiyeva M. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. - Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
14. .Oxunjonova O. Yozma ishlarni o'tkazish metodikasi. - Toshkent, 2014.
15. Yuldashev R.A, Rixsiev M.M. Insholardagi matnii xatolarularni tuzatish metodi. Toshkent, 2018

Internet saytlari

- a. [www. literature.uz](http://www.literature.uz).
- 16. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>.
- a. <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>.
- b. <http://www.utpa.edu/faculty/mglazer/Theory/structuralism.htm>.
- http://www.eng.fju.edu.tw/Literary_Criticism/structuralism.
- www.catuzmu.
- www.natl.uz.

**13.00.02 –Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili) ixtisosligi bo‘yicha
mutaxassislik fanlaridan tayanch doktoranturaga**

kirish imtihoni savolnomasi

1. Ta’limning maqsad va vazifalari. Uzluksiz ta’lim tizimida ona tili ta’limining maqsad va vazifalari
2. Ta’limni tashkil etish shakllari, ta’lim bosqichi va vazifalariga ko‘ra turlari
3. O‘zbek tilini o‘qitishning o‘ziga xos va umumdidaktik prinsiplari haqida ma’lumot bering
4. Ta’lim prinsiplari haqida ma’lumot.
5. Ona tilini o‘qitishning xususiy prinsiplari
6. O‘zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti
7. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasining tarixi va rivojlanish bosqichlari
8. Ona tilini o‘qitish prinsiplari. (didaktik va metodik prinsiplar tushunchasi)
9. Sintaksisning asosi – gap haqidagi ta’limot
10. Metodlar klassifikatsiyasi. (Informatsion – retseptiv, reproduktiv, muammoli vaziyatni izohlash metodi, evristik va tadqiqot metodlari)
11. Gap bo‘laklari talqiniga turlicha yondashuvlar. Kesim gapning asosiy uyushtiruvchi markazi ekanligi
12. Metodikaning predmeti va vazifalari. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi
13. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi, kompetensiya turlari va strukturasi

14. Leksik ma'no taraqqiyotiga turki beruvchi lisoniy va nolisoniy omillar
15. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik kvalimetriya metodlaridan foydalanish afzalliklari
16. Oliy ta'limda o'zbek tilini o'qitish metodikasidan yaratilgan o'quv qo'llanmalar, darsliklar mavjud elektron majmualar va uslubiy qo'llanmalarning o'rnini mavjud ahvoli va tahlili.
17. O'zbek tilini o'qitish metodlarining yutuq va kamchiliklari, o'zbek tilini o'qitishning zamonaviy metodlari
18. So'zning morfem tarkibidagi o'zgarishlarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi
19. «O'zbek tili o'qitish metodikasi» kursining vazifasi, mundarijasi.
20. Ta'limni induktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etish
21. «O'zbek tili o'qitish metodikasi» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
22. Ona tilidan ta'lim mazmuni, tadris usuli hamda vositalarini yangilash taqozasi.
23. Ta'lim sikllariga mos dars tiplari va ularning tuzilishi.
24. Ona tili o'qitish tamoyillari.
25. Til ta'limida masofaviy ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari va afzalliklari
26. Dars bosqichlari.
27. «Ona tili» fanidan yangi dastur va darsliklarning konseptual asoslari.
28. Ta'lim sikllariga mos dars tiplarining tuzilishi.
29. Ona tilidan umumiy o'rta ta'limdagi davlat ta'lim standartida o'quvchilar bilimiga bo'lgan talablar.
30. Til ta'limida an'anaviy va noan'anaviy ta'limning afzalliklari va kamchiliklari. Ona tili o'qitish metodlari.
31. Dars tiplari belgilash asoslari.
32. «O'zbek tili o'qitish metodikasi» kursining vazifasi, mundarijasi.
33. O'zbek tilini o'qitishda vebinarlar, videodarslar
34. O'zbek tilini ijtimoiy tarmoqlar orqali o'rganish masalasi

35. Tilni masofadan o'qitish tarixi haqida
36. Sistema va struktura. Til sistemasining sathlari.
37. Mahorat darslari texnologiyalari
38. «O'zbek tili o'qitish metodikasi» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
39. Muammoli ta'lim texnologiyalari
40. Til o'rgatishning lisoniy didaktik omillari
41. Zamonaviy texnologiyaga asoslangan an'anaviy darsning o'ziga xos xususiyatlari
42. Hamkorlikda o'qish uchun mavzu tanlash. Ushbu darsdan kuzatilgan maqsad-vazifalar.
43. Til sathlarini o'rganishga oid elektron dars ishlanmalarini tayyorlash va tahlil qilish
44. O'quv jarayonini tashkil etishning innovatsion shakllari
45. Ta'limning maqsad va vazifalari.
46. Uzlaksiz ta'lim tizimida ona tili ta'limining maqsad va vazifalari
47. Ona tilini o'qitish prinsiplari. (didaktik va metodik prinsiplar tushunchasi)
48. Sintaksisning asosi – gap haqidagi ta'limot
49. Metodlar klassifikatsiyasi. (Informatsion – retseptiv, reproduktiv, muammoli vaziyatni izohlash metodi, evristik va tadqiqot metodlari)
50. Ta'limni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari
51. Ona tilini o'qitishda psixologik prinsiplarining mohiyati.
52. Psixolingvistikaning yuzaga kelishi. Psixolingvistikaning o'rganish obyekti.
53. Psixolingvistikaning fanlar tizimida tutgan o'rni.
54. Xorijiy malakatlarda psixolingvistika. Amerikadagi psixolingvistika4
55. Ona tilini o'qitishda asosiy vositalar: darsliklar, didaktik va metodik qo'llanmalar, jadvallar, modellar, sxemalar, kompyuter va boshqalar.
56. Davlat ta'lim standarti talablari asosida ta'lim muassasalari uchun o'quv-metodik takomillashtirishning ilmiy- pedagogik asoslari.

57. Fransiya sotsiologiya maktabi. «Izchillik psixolingvistikasi».
58. Mantiqiy metodlar: taqqoslash va analogiya, umumlashtirish, abstraksiyalash, konkretlashtirish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez.
59. Ta'lim jarayonining mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari, qarama-qarshiliklari va mantiqiy tuzilmasi.
60. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari. Asosiy didaktik nazariyalar: turli ta'lim sistemalarida shaxsni rivojlantirish nazariyalari.
61. Ta'lim mazmunini me'yorlovchi normativ hujjatlar. Ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodlari.
62. Ta'limning maorifiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalari. Ta'lim jarayonining tuzilishi maqsadlari va natijalari.
63. Til psixologiyasi, nutq akti va nutqni anglash.
64. Ruminiya va Yaponiyadagi psixolingvistik tadqiqotlar.
65. L.S.Vigotskiyning psixolingvistik konsepsiyasi. A.R.Lurin tadqiqotlari.
66. Ta'limning turli: frontal, jamoaviy, guruhli, individual shakllarining o'ziga xos xususiyatlari va o'zaro aloqadorligi.
67. O'qituvchi va o'quvchi faoliyatini, o'qitish natijalarini baholashda xolislik va "formalizm"ga yo'l qo'yimaslik shart sharoitlari.
68. Psixologik-pedagogik diagnostikaning asosiy muammolari.
69. Uzlaksiz ta'limning turli bosqichlari uchun o'quv-metodik adabiyotlar majmuasini yaratishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish.
70. Tushuntirish–illyustratsiyalash, muammoli, dasturlashtirilgan va kompyuterli ta'limni amalga oshirish nazariyalari.
71. Til tajribasini hisobga olish va og'zaki nutqning ilgarilashi prinsiplari.
72. Ta'limning og'zaki metodlari, o'qitishning induktiv va deduktiv metodlari.
73. Ta'limning ikki tomonlama va shaxsga yo'naltirilgan harakatlari. O'qitish va o'qish jarayonining yagonaligi.
74. Laboratoriya va amaliy, seminar mashg'ulotlarning mazmuni, tuzilishi va ularni o'tkazish metodikasi.
75. Nutqiy xulqda lisoniy qobiliyat va faollik birligi.

76. Nutq patologiyasining psixolingvistik asoslari.
77. Ommaviy kommunikatsiya vositalarining ta'sirini o'rganishda psixolingvistikaning roli.
78. Pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari.
79. Ta'lim jarayonida o'zaro muomala va dialogni amalga oshirish muammolari. Kasbiy pedagogik faoliyatining mohiyati.
80. Tashxislovchi, ogohlantiruvchi, joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari..
81. Og'zaki, yozma va kompyuterli nazorat turlari. Amaliy mashg'ulot ta'lim texnologiyasining modeli.
82. Ta'lim maqsadlari va taksonomiyalari, rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi.
83. O'quv faoliyati nazariyasi va uning subyekti; mazmunli umumlashtirish nazariyasi; aqliy hatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi.
84. Ta'lim mazmunini didaktik vositalar orqali modellashtirish.
85. Ta'lim mazmunini me'yorlovchi normativ hujjatlar. Ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodlari.
86. Ta'lim ijtimoiy madaniyat fenomeni sifatida.
87. Ta'lim jarayonining mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari, qarama-qarshiliklari va mantiqiy tuzilmasi.
88. Rivojlantiruvchi, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan moduli, muammoli, didaktik o'yinli, kontekstli, axborotli, tabaqalashtirilgan, multimediyali, o'z-o'zini rivojlantiruvchi texnologiyalar.
89. Asosiy dars tiplari. O'qituvchining darsga tayyorlanish tizimi.
90. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, estetik va ma'naviy tarbiya.
91. Ona tili ta'limida o'quvchilarning o'qib tushunish malakasini baholashning nazariy asoslari.
92. O'qib tushunish malakasini baholashning psixofiziologik asoslari.
93. Ona tili ta'limida o'quvchilarning o'qib tushunish malakasini baholash mexanizmlari.
94. Globalashuv davrida ona tili darsliklarining nazariy masalalari

95. Xalqaro tadqiqotlar va darsliklarni takomillashtirish masalalari.
96. Ona tili darsliklari uchun matnlarni tanlash masalalari.
97. Maktabda, akademik litsey, oliy ta'lim va oliy ta'limdan tashqari, darsdan va sinfdan tashqari fan ta'limining maqsadlari.
98. Moddiy - ma'naviy madaniyat elementlari va predmetlari ta'lim vositasi sifatida.
99. O'quvchilar bilish faoliyatini tashkil etish yo'llari.
100. Keys texnologiyasidan foydalanish orqali o'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.